enhance the quality of translation in the tourism sector and create a welcoming environment for Chinese tourists, it is necessary to implement the following scientific and practical solutions and recommendations:

1. Use of Descriptive and Annotated Translation: When rendering cultural realia and gaps into Uzbek, brief explanations or glosses should be provided alongside the terms.

2. Creation of a Chinese-Uzbek Specialized Tourism Glossary: It is essential to establish a standardized terminological database between the two languages.

3. Pragmatic Adaptation: In guidebooks and texts intended for travelers, avoid dry linguistic translation and apply translated variants adapted to the stylistic and cultural norms of the Uzbek language.

Conclusion. The structural-semantic analysis of tourism terms in the Chinese and Uzbek languages demonstrates their distinct linguistic and cultural nature. Overcoming pragmatic problems in translation requires not only lexical equivalence, but also intercultural adaptation and a linguoculturological approach. In particular, rendering Chinese cultural realia, historical-geographical names, and national tourist concepts into Uzbek while preserving their functional-pragmatic characteristics is of significant scientific and practical importance. Research in this direction serves to further develop tourism and cultural ties between the two countries.

References:

(1). Nida E.A. (1964). Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 331 p. https://archive.org/details/towardscienceoft0000nida

(2). Newmark P. (1988). A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 292 p.https://archive.org/stream/ATextbookOfTranslationByPeterNewmark/a%20textbook%20of%20translation%20by%20peter%20newmark_djvu.txt

(3). 吕叔湘 (Lu, Shuxiang). (1999). Xiandai Hanyu Babai Ci (Eight Hundred Words of Modern Chinese). Beijing, The Commercial Press, 537 p.

(4). Khojayev A. (2018). Issues of Chinese Language and Translation Theory. Tashkent, 180 p

(5). Karimov A. (2021). Terminology of Oriental Languages and Translation Practice. Tashkent, TSOSI (Tashkent State University of Oriental Studies), 45 p.

Turopova Marhabo Sadullayevna (Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi; marhabosadullayevna5@gmail.com; ORCID: 0009-0008-3591-7317)

NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI VA PROMPT-MATNLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqolada sun'iy intellekt tizimiga yo'llangan so'rovlar nutqiy akt sifatida o'rganilib, ingliz va o'zbek tillarida illokutiv kuchni ko'rsatuvchi vositalar qiyoslanadi. O'zbek tilidagi III shaxs buyruq shakli, "iltimos" va "-chi" kabi ko'rsatkichlar hamda promptning makroakt sifatidagi tuzilishi tavsiflanadi.*

Kalit so'zlar: *nutqiy akt, illokutiv kuch, bilvosita akt, makroakt, prompt.*

ТЕОРИЯ РЕЧЕВЫХ АКТОВ И ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОМПТ-ТЕКСТОВ

Аннотация. *Запросы к системе искусственного интеллекта рассматриваются как речевые акты; сопоставляются средства выражения иллокутивной силы в английском и узбекском языках. Описаны узбекская форма повелительного наклонения 3-го лица, показатели "iltimos" и "-chi", а также строение промпта как макроакта.*

Ключевые слова: *речевой акт, иллокутивная сила, косвенный акт, макроакт, промпт.*

SPEECH ACT THEORY AND THE PRAGMALINGUISTIC ANALYSIS OF PROMPT TEXTS

Annotation. *Requests addressed to an artificial intelligence system are treated as speech acts, and the devices indicating illocutionary force in English and Uzbek are compared. The Uzbek third-person imperative, the markers iltimos and -chi, and the structure of a prompt as a macro-act are described.*

Key words: *speech act, illocutionary force, indirect act, macro-act, prompt.*

Kirish. Foydalanuvchi sun'iy intellekt tizimiga "Ushbu maqolani qisqartiring" deb yozganida u dunyo haqida biror axborotni xabar qilmaydi, balki suhbatdoshini muayyan ishni bajarishga undaydi. Bunday matnni faqat grammatik birliklar yig'indisi sifatida emas, balki so'zlovchi niyati bilan yuklangan harakat sifatida o'rganish nutqiy aktlar nazariyasining asosiy g'oyasiga mos keladi. Prompt-matnlar bu nazariya uchun qulay material, chunki ularda harakat, uning maqsadi va natijasi – tizim javobi – yozma shaklda to'liq saqlanib qoladi.

Biroq o'zbek tilida yozilgan promptlarda illokutiv kuch qanday vositalar bilan ifodalanishi, ular ingliz tilidagi vositalardan nimasi bilan farq qilishi hali tavsiflanmagan. Maqolaning maqsadi – prompt-matn-

larda illokutiv kuchni koʻrsatuvchi vositalarni ikki tilda qiyoslash va promptni bir necha aktdan tashkil topgan butunlik sifatida tahlil qilish.

Adabiyotlar tahlili. Nutqiy aktlar nazariyasi J.Ostinning ma'ruzalarida shakllangan. Olim konstativ va performativ gaplarni farqlashdan boshlab, har qanday gapirish bir vaqtda lokutsiya, illokutsiya va perlokutsiyani oʻz ichiga olishi haqidagi xulosaga kelgan, aktning muvaffaqiyatli boʻlishi uchun shartlar tizimini ham taklif qilgan [6]. J.Serl va D.Vanderveken illokutiv kuchni maqsad, bajarilish usuli, kuch darajasi, propozitsional mazmun va tayyorgarlik shartlari kabi tarkibiy qismlarga ajratib, uni mantiqiy jihatdan formallashtirgan [7]. Ushbu maqolada kuch darajasi tushunchasi ayniqsa muhim, chunki prompt-matnda bir xil talab turli kuchda ifodalanishi mumkin.

Oʻzbek tilshunosligida nutqiy aktlar nazariyasini oʻzbek tili materialiga tatbiq etish Sh.Safarov ishlarida izchil amalga oshirilgan. Olim bilvosita nutqiy aktlarni, ya'ni, gapning shakli bilan kommunikativ maqsadi mos kelmaydigan holatlarni oʻzbek tili misollarida tahlil qiladi [5]. M.Hakimov oʻzbek pragmalingvistikasining asosiy tushunchalarini, jumladan, kommunikativ niyat va pragmatik ma'noni tizimlashtirgan [1]. N.Mahmudov va A.Nurmonov gaplarni kommunikativ maqsadga koʻra darak, soʻroq va buyruq turlariga ajratib, ularning grammatik belgilarini tavsiflagan [3]. Bu tasnif grammatik gap turi va illokutiv akt oʻrtasidagi munosabatni aniqlashda tayanch boʻladi. Buyruq maylining shaxs-son shakllari va ularning ma'no ottenkalari Sh.Rahmatullayev darsligida batafsil yoritilgan [4], N.Mahmudov esa nutq madaniyati masalalarida murojaat va iltimos shakllarining me'yoriy tomonini koʻrib chiqqan [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlilda illokutiv koʻrsatkichlarni ajratish usuli qoʻllandi: har bir prompt gapida aktning turini belgilovchi grammatik, leksik va sintaktik vositalar aniqlandi. Soʻngra gapning grammatik turi [3] va uning illokutiv vazifasi solishtirilib, toʻgʻri va bilvosita aktlar farqlandi. Koʻp gapli promptlarda esa har bir gapning vazifasi alohida belgilanib, butun matnning umumiy maqsadi aniqlandi. Ingliz va oʻzbek tillaridagi misollar parallel tuzildi.

Tahlil va natijalar. Prompt-matnlarda ochiq performativ fe'llar juda kam uchraydi. "Sizdan soʻrayman", "I ask you to…" kabi shakllar rasmiy ohang beradi va kundalik promptlarda deyarli ishlatilmaydi. Illokutiv kuch, asosan, mayl shakli va yordamchi vositalar orqali beriladi. Oʻzbek tilida asosiy koʻrsatkich –II shaxs buyruq shakli ("qisqartiring"), ammo uning yonida promptga xos yana bir shakl faol qoʻllanadi: III shaxs buyruq-istak shakli. "Javob qisqa boʻlsin", "Misollar oʻzbek tilida berilsin" gaplarida soʻzlovchi adresatga emas, natijaning oʻziga talab qoʻyadi [4]. Ingliz tilida bu vazifani "Keep it short", "Make the answer brief" kabi II shaxs buyruq gaplari bajaradi, chunki ingliz tilida III shaxs buyruq shakli yoʻq.

Leksik koʻrsatkichlar orasida "iltimos" soʻzi yetakchi. U gapning boshida kelganda butun promptni iltimos ramkasiga oladi, oxirida kelganda, talabni yumshatuvchi qoʻshimcha sifatida idrok etiladi. "-chi" yuklamasi esa ("Qisqartiring-chi") talabga soʻzlashuv ohangini beradi, koʻpincha, takroriy soʻrovlarda uchraydi. Bu vositalar illokutiv aktning turini oʻzgartirmaydi, biroq uning kuch darajasini pasaytiradi. Serl va Vanderveken nazariyasida bu holat bir illokutiv maqsadning turli kuch darajalarida amalga oshishi sifa-tida izohlanadi [7]: "Matnni qisqartiring"–"Iltimos, matnni qisqartirib bersangiz"–"Matnni qisqartirsak boʻlmaydimi?" qatori buyruqdan iltimosga, undan taklifga oʻtishni koʻrsatadi.

Gapning grammatik turi va illokutiv vazifasi promptlarda tez-tez mos kelmaydi. Darak, gap direktiv vazifani bajarishi mumkin: "Menga uch xatboshilik reja kerak". Soʻroq gap ham shunday: "Bu matnni ingliz tiliga oʻgirib bera olasizmi?" Sh. Safarov ta'kidlaganidek, bunday bilvosita aktlarda tinglovchi gap shaklidan emas, balki vaziyatdan kelib chiqib, soʻzlovchi niyatini aniqlaydi [5]. Prompt holatida vaziyat cheklangan boʻlsa-da, tizim bunday soʻroqlarni odatda iltimos sifatida qabul qiladi va "ha, olaman" deb emas, balki tarjimaning oʻzini taqdim etib javob beradi.

Promptdagi aktlarning asosiy turlari va ularning ikki tilda ifodalanishi 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Prompt-matnlarda uchraydigan akt turlari

Akt turi	Promptdagi vazifasi	Oʻzbekcha misol	Inglizcha misol
Direktiv (toʻgʻri)	Asosiy talab	Matnni tarjima qiling.	Translate the text.
Direktiv (III shaxs)	Natijaga talab	Javob qisqa boʻlsin.	Keep it short.
Direktiv (bilvosita)	Iltimos soʻroq yoki darak shaklida	Tarjima qila olasizmi? Menga reja kerak.	Could you translate it? I need a plan.
Assertiv	Vaziyatni tushuntirish	Men oʻqituvchiman.	I am a teacher.
Ekspressiv	Minnatdorchilik	Oldindan rahmat!	Thanks in advance!
Deklarativga oʻxshash	Rol oʻrnatish	Siz muharrirsiz.	You are an editor.

Ko‘p gapli promptlar alohida aktlar yig‘indisi emas, balki ierarxik butunlikdir. Masalan, “Men o‘qituvchiman. Ertaga 7-sinfda dars o‘taman. Mavzu bo‘yicha beshta savol tuzib bering. Oldindan rahmat!” matnida birinchi ikki gap assertiv, uchinchisi direktiv, to‘rtinchisi ekspressiv aktdir. Biroq butun matnning umumiy illokutiv maqsadi bitta – savollar tuzdirish, qolgan aktlar shu maqsadga xizmat qiladi. Bunday butunlikni makroakt deb atash mumkin. M.Hakimov matnning pragmatik yaxlitligi uning kommunikativ niyati birligiga tayanishini qayd etadi [1]. Prompt-matnda bu birlik direktiv akt atrofida tashkil topadi.

Taqiq ham direktiv aktning bir ko‘rinishi bo‘lib, promptlarda talab doirasini cheklash uchun ishlatiladi: “Misol keltirmang”, “Ortiqcha izoh bermang”, “Do not add examples”. O‘zbek tilida inkor ma’nosi fe’l tarkibidagi -ma qo‘shimchasi bilan beriladi va shaxs hamda hurmat ko‘rsatkichlari bilan bir shaklda birlashadi [4], ingliz tilida esa alohida do not yoki never so‘zlari bilan ifodalanadi. Promptlarda taqiq, odatda, asosiy direktivdan keyin keladi va uni aniqlashtiruvchi ikkinchi darajali akt vazifasini bajaradi. Bu kuzatish yuqorida aytilgan makroakt tuzilishini yana bir bor tasdiqlaydi: taqiq mustaqil maqsadga ega emas, u bosh talabga bo‘ysunadi.

Rol tayinlovchi gaplar (“Siz tajribali muharrirsiz”, “You are an experienced editor”) alohida guruhni tashkil etadi. Ular tashqi ko‘rinishdan assertiv, ammo hech qanday haqiqiy holatni tasvirlamaydi, balki muloqot uchun yangi ramka o‘rnatadi. Ostin deklarativ aktlarning muvaffaqiyatini institutsional vakolat bilan bog‘lagan edi [6], prompt holatida esa rol foydalanuvchi so‘zi bilan o‘rnatiladi va faqat shu muloqot doirasida amal qiladi.

Kommissiv aktlar promptlarda kam uchrasa-da, ular muloqotni rejalashtirishda muhim o‘rin tutadi. Foydalanuvchi “Hozir sizga uchta matn yuboraman, hammasini o‘qib chiqqaningizdan keyin tahlil qiling” deb yozganda o‘zining keyingi harakatini va’da qiladi hamda tizimdan javobni kechiktirishni so‘raydi. Bu yerda kommissiv va direktiv aktlar bitta gapda birlashadi. O‘zbek tilida kelasi zamon shakli (-aman) va payt ergash gapi (-gandan keyin) aktlar ketma-ketligini aniq belgilaydi, ingliz tilida esa bu vazifani “I will send… After that, analyse…” kabi alohida gaplar bajaradi.

Aktning qabul qilinganligi (uptake) prompt muloqotida tizim javobi orqali kuzatiladi. Javob talabga mos bo‘lsa, akt anglangan hisoblanadi, aks holda, foydalanuvchi aktni qayta ifodalaydi: “Yo‘q, men faqat xulosani so‘ragan edim”. Bu qayta ifodalashda illokutiv kuch, odatda, oshadi: iltimos shakli buyruqqa, bilvosita akt to‘g‘ri aktga o‘tadi.

Tahlil natijalari quyidagicha: o‘zbek tilida illokutiv kuch II va III shaxs buyruq shakllari, “iltimos” va “-chi” kabi vositalar bilan, ingliz tilida esa, asosan, buyruq gap va modal so‘roqlar bilan beriladi. Darak va so‘roq gaplar promptda, ko‘pincha, bilvosita direktiv bo‘lib keladi. Ko‘p gapli prompt bitta direktiv atrofida tuzilgan makroaktdir. Rad etilgan aktni qayta ifodalashda kuch darajasi ortadi.

Muhokama. Adresatning inson emasligi samimiylik shartini o‘ziga xos holga keltiradi. Foydalanuvchi talab bajarilishini chin dildan istaydi, biroq “iltimos” yoki “rahmat” so‘zlarining samimiyligi haqida gapirish qiyin, chunki ular tizimga emas, ko‘proq so‘zlovchining o‘z nutqiy odatiga tegishli. N.Mahmudov nutq odobi shakllari so‘zlovchining madaniyatini aks ettirishini ta’kidlaydi [2]. O‘zbek foydalanuvchilarining promptlarda ham bu shakllarni saqlashi, ularning mashina bilan muloqotda ham milliy nutq odobiga amal qilishini ko‘rsatadi.

Ikkinchi masala nazariyaning chegarasi bilan bog‘liq. Ostin va Serl nazariyasi ikki inson o‘rtasidagi muloqotga asoslangan bo‘lib, unda tinglovchi so‘zlovchi niyatini anglay oladigan shaxs sifatida tasavvur qilinadi [6;7-b.]. Prompt muloqotida tizimning niyatni “anglashi” haqida gapirish shartli, ammo foydalanuvchi nuqtayi nazaridan akt to‘liq amalga oshadi. U niyatini ifodalaydi, natijani kutadi va javobga qarab aktni baholaydi. Shu sababli nutqiy aktlar nazariyasini prompt-matnlarga tatbiq etishda so‘zlovchi tomoniga tayanish metodologik jihatdan asosliroq.

Xulosa. O‘zbek va ingliz tillaridagi promptlarda illokutiv kuch turli vositalar bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida III shaxs buyruq-istak shakli natijaga yo‘naltirilgan talabning alohida turini hosil qiladi, “iltimos” va “-chi” esa talabning kuch darajasini boshqaradi. Promptlarning katta qismi bilvosita akt shaklida bo‘lib, tizim ularni iltimos sifatida qabul qiladi. Ko‘p gapli prompt yagona direktiv maqsad atrofida tashkil topgan makroakt sifatida tavsiflanadi. Bu kuzatishlar o‘zbek tilida ko‘rsatma matn yozish madaniyatini o‘rgatishda qo‘llanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Hakimov M.X. O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent, “Akademnashr”, 2013, 176-bet.

(2). Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘lida. Toshkent, “Akademnashr”, 2017.

(3). Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (Sintaksis). Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 232-bet.

(4). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006.
(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 320-bet.
(6). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962, 168 p.
(7). Searle J.R., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. Cambridge: Cambridge University Press, 1985, 227 p.

Radjabova Jayron Ikram qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

“ALVIDO, QUROL!” VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANLARIDA BADIIY VAQT VA MAKON POETIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makon kategoriyalarining poetik xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki adib ijodida xronotopning badiiy-kompozitsion, psixologik hamda falsafiy-estetik funksiyalarini aniqlash, urush voqeligining zamon va makon munosabatlari orqali ifodalanish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Qiyosiy-tipologik, struktural-semantik, narratologik va kontekstual tahlil usullari yordamida romanlardagi voqealar ketma-ketligi, retrospektiv tasvir, psixologik vaqt, tarixiy xotira, makonlar almashinuvi va tabiat tasvirlarining semantik vazifalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy vaqt, badiiy makon, xronotop, urush nasri, retrospeksiya, narrativ struktura, tarixiy xotira, psixologik vaqt, qiyosiy tipologiya, poetika, Ernest Xeminguey, O‘tkir Hoshimov.*

Раджабова Джайрон Икрам кизи (Аспирант 2-го года обучения Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В РОМАНАХ «ПРОЩАЙ, ОРУЖИЕ!» И «ЖИЗНИ, ПРОЖИТЫЕ ВО СНЕ»

Аннотация. *В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются поэтические особенности категорий художественного времени и пространства в романах Эрнеста Хемингуэя «Прощай, оружие!» и Уткира Хашимова «Жизни, прожитые во сне». Основная цель исследования заключается в выявлении художественно-композиционных, психологических и философско-эстетических функций хронотопа в творчестве двух писателей, а также в раскрытии механизмов художественного воплощения военной действительности посредством временных и пространственных отношений. С использованием сравнительно-типологического, структурно-семантического, нарратологического и контекстуального методов анализа рассматриваются последовательность событий, ретроспективное повествование, психологическое время, историческая память, смена пространственных локусов и семантические функции пейзажных описаний в исследуемых романах.*

Ключевые слова: *художественное время, художественное пространство, хронотоп, военная проза, ретроспекция, нарративная структура, историческая память, психологическое время, сравнительная типология, поэтика, Эрнест Хемингуэй, Уткир Хашимов.*

Radjabova Jayron Ikram qizi (2nd year PhD student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named Alisher Navoi; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

THE POETICS OF ARTISTIC TIME AND SPACE IN THE NOVELS “A FAREWELL TO ARMS” AND “LIVES LIVED IN A DREAM”

Annotation. *This article examines the poetic features of artistic time and space in Ernest Hemingway’s A Farewell to Arms and O‘tkir Hoshimov’s Lives Lived in a Dream from a comparative-typological perspective. The primary aim of the study is to identify the artistic-compositional, psychological, and philosophical-aesthetic functions of the chronotope in the works of both authors, as well as to explore the mechanisms through which the realities of war are represented through temporal and spatial relationships. Employing comparative-typological, structural-semantic, narratological, and contextual methods of analysis, the study investigates the sequence of events, retrospective narration, psychological time, historical memory, spatial transitions, and the semantic functions of landscape descriptions in the selected novels.*

Keywords: *artistic time, artistic space, chronotope, war prose, retrospection, narrative structure, historical memory, psychological time, comparative typology, poetics, Ernest Hemingway, O‘tkir Hoshimov.*